*Sifatli ta'lim-yorqin kelajak*
*ISSN: 3060-4761*

*TerDPI ILMIY XABARNOMASI*
*SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI*
*НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ*

*www.xabarnoma.terdpi.uz*

**UDK:911.2;504.75**
ORCID: 0009-0009-3853-9697

# BOSHLANG'ICH TA'LIMDA TABIIY FANLAR VA GEOGRAFIYA ASOSLARI FANLARINI O'QITISHNING PEDAGOGIK–PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

**DJUMAYEVA MOHIGUL MAMANAZAROVNA,**
**TerDPI Texnologiya va geografiya kafedrasi o'qituvchisi:**
**E-mail: mohigul@terdpi.uz**

**Annotatsiya.** Bugungi kunda yangi O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni zamonaviy ilmiy va metodik asoslarda tashkil etish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Xususan, maktabgacha va boshlang'ich ta'lim bosqichlaridagi ta'lim-tarbiya jarayonlarini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish maqsadida turli davlat dasturlari, konsepsiyalar va strategiyalar qabul qilinmoqda. Boshlang'ich ta'lim nafaqat umumiy bilimlarning poydevorini yaratish, balki bolalarning tafakkurini, mantiqiy fikrlash qobiliyatini va atrof-muhitga bo'lgan munosabatini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Shu nuqtai nazardan, tabiiy fanlar, jumladan, geografiyaga oid bilimlar boshlang'ich sinflar uchun katta tarbiyaviy va ma'rifiy ahamiyatga ega bo'lib, o'quvchilarning ekologik madaniyati, fuqarolik mas'uliyati va vatanparvarlik tuyg'usini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda boshlang'ich ta'limda tabiiy fanlar va geografiya asoslari fanlarini o'qitishning pedagogik-psixologik xususiyatlari haqida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar.** Boshlang'ich sinf, o'qituvchi, geografiya, geografik tafakkur, tabiiy fanlar, geografik bilimlar, pedagogik yondashuv, sifatli ta'lim.

# ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПРЕПОДАВАНИЯ ЕСТЕСТВОЗНАНИЙ И ОСНОВ ГЕОГРАФИИ В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

**Аннотация.** Сегодня коренное реформирование сферы образования в Республике Узбекистан, её организация на современной научно-методической основе стало одним из приоритетных направлений государственной политики. В частности, принимаются различные государственные программы, концепции и стратегии, направленные на вывод образовательного процесса на дошкольных и начальных уровнях образования на качественно новый уровень. Начальное образование играет важную роль не только в создании фундамента общих знаний, но и в формировании у детей мышления, навыков логического мышления и отношения к окружающей среде. В этой связи естественные науки, в том числе география, имеют большое образовательное и воспитательное значение для начальных классов, служа развитию у учащихся экологической культуры, гражданской ответственности и чувства патриотизма.

В данной статье рассматриваются педагогические и психологические особенности преподавания естествознания и основ географии в начальной школе.

**Ключевые слова:** Начальная школа, учитель, география, географическое мышление, естественные науки, географические знания, педагогический подход, качественное образование.

# PEDAGOGICAL-PSYCHOLOGICAL FEATURES OF TEACHING NATURAL SCIENCES AND BASICS OF GEOGRAPHY IN PRIMARY EDUCATION

**Annotation.** Today, a radical reform of the education sector in the Republic of Uzbekistan, its organization on a modern scientific and methodological basis, has become one of the priority areas of state policy. In particular, various state programs, concepts and strategies are being adopted in order to bring educational processes at the preschool and primary education levels to a qualitatively new level. Primary education plays an important role not only in creating the foundation of general knowledge, but also in shaping children's thinking, logical thinking skills and attitude to the environment. In this regard, natural sciences, including geography, are of great educational and educational importance for primary grades, serving to develop students' ecological culture, civic responsibility and a sense of patriotism.

This article discusses the pedagogical and psychological characteristics of teaching natural sciences and the basics of geography in primary education in primary grades.

**Key words.** Primary school, teacher, geography, geographical thinking, natural sciences, geographical knowledge, pedagogical approach, quality education.

**KIRISH.** Bugungi kunda yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida ta’lim sohasini tubdan isloh qilish, uni zamonaviy ilmiy va metodik asoslarda tashkil etish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi[1]. Xususan, maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim bosqichlaridagi ta’lim-tarbiya jarayonlarini sifat jihatidan milliy o‘quv dasturi talablari asosida yangi bosqichga olib chiqish maqsadida turli davlat dasturlari, konsepsiyalar va strategiyalar qabul qilinmoqda. Boshlang‘ich ta’lim nafaqat umumiy bilimlarning poydevorini yaratish, balki bolalarning tafakkurini, mantiqiy fikrlash qobiliyatini va atrof-muhitga bo‘lgan munosabatini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Shu nuqtai nazardan, tabiiy fanlar, jumladan, geografiyaga oid bilimlar boshlang‘ich sinflar uchun katta tarbiyaviy va ma’rifiy ahamiyatga ega bo‘lib, o‘quvchilarning ekologik madaniyati, fuqarolik mas’uliyati va vatanparvarlik tuyg‘usini rivojlantirishga xizmat qiladi[3].

“O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son farmoni, 2018-yil 25-yanvardagi PF-5313-son “Umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va kasb-hunar ta’limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-53133-son farmoni, 2019-yil 20-fevraldagi “Yoshlarning intellektual va ijodiy salohiyatini rivojlantirish, iqtidorli

bolalarni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish maqsadida “Prezident maktablarini ochish to‘g‘risida”gi PQ-4199-son qarori, 2020-yil 6-noyabrdagi “Ta’lim va kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4884-son qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi[3].

Geografik bilimlar maktab o‘quvchilarining tabiat, jamiyat, iqtisodiyot, demografiya, resurslar va ekologik muammolar kabi yo‘nalishlardagi umumiy dunyoqarashini shakllantirishga asos bo‘ladi. Bu esa, o‘z navbatida, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining ushbu bilim va ko‘nikmalarni bolalar ongiga mos, to‘g‘ri va qiziqarli usulda yetkazish qobiliyatiga bog‘liqdir. Shu bois, kelajakdagi boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida geografik tafakkurni shakllantirish, ularni zamonaviy metodik vositalar va uslublar bilan qurollantirish, ta’lim jarayonida geografiyaga oid elementlardan foydalanishga tayyorlash dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

Umumiy boshlang‘ich ta’lim nafaqat bilim poydevorini yaratibgina qolmay, balki bolalarning tafakkurini, mantiqiy fikrlash qobiliyatini, atrof-muhitga munosabatini shakllantirishda ham muhim o‘rin tutadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, tabiiy fanlar, jumladan, geografiya fani ham boshlang‘ich sinflar uchun katta ta`limiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lib, o‘quvchilarda ekologik madaniyat, fuqarolik mas’uliyati, vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirishga xizmat qiladi[7].

Geografik bilimlar maktab o‘quvchilarining tabiat, jamiyat, iqtisodiyot, demografiya, resurslar va ekologik muammolar kabi sohalarda umumiy dunyoqarashini shakllantirishning asosidir. Bu esa, o‘z navbatida, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining ana shu bilim va ko‘nikmalarni bolalarga o‘z vaqtida, to‘g‘ri, qiziqarli yetkaza olishiga bog‘liq. Shu boisdan ham bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini geografik tafakkurga tayyorlash, ularni zamonaviy uslubiy vositalar va usullar bilan jihozlash, geografiyaga oid elementlardan dars jarayonida foydalanishga tayyorlash ilmiy-amaliy vazifadir.

Shu bilan birga, global iqlim o‘zgarishi, demografik yuksalish, resurslardan samarali foydalanish, tabiiy ofatlarga tayyorgarlik ko‘rish kabi muammolar yosh avlodni geografik jihatdan oqilona va mas’uliyatli qilib tarbiyalash zaruratini oshirmoqda. Bunda o‘qituvchining geografik tafakkuri, ya’ni real dunyoni joy, vaqt va tizim nuqtai nazaridan anglay olishi hal qiluvchi omillardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Shu ma’noda pedagogik ta’lim muassasalaridagi bo‘lajak o‘qituvchilarning geografik tafakkurini tizimli va maqsadli rivojlantirish ta’lim sifatini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.** Mamlakatimiz ta’lim jarayonida tabiiy bilimlarni o‘rgatish masalalari M.Nuriddinova, N.J.Isaqulova, A.G.Grigoryans, Sh.Mirzaxmedova, Ochilov M., K. Nazarov., S. Fuzailovlar tomonidan tadqiq etilgan.

MDH davlatlari olimlari tomonidan o‘quvchilarda tabiiy-ilmiy dunyoqarashni shakllanishining psixologik-pedagogik asoslari bo‘yicha G.Barisheva, I P Borisova, P. I. Borovitskiy, A.I. Glazirin, M. M. Gostev, A.A. Grabetskiy, Lebedev, G S Suxobskaya, A.V.Xutorskoylar tomonidan tadqiq qilingan[4].

Rivojlangan xorijiy davlatlarda tabiiy bilimlarni ilmiy va nazariy jihatdan o‘rganish assosan A. Bandura, Onalbek Z.K., Hansen, Diario A.S, Klinkov G.T. Kushnir N., Manzhula A., Sergis S., D.G. Sampson, M.Giannakoslar tomonidan amalga oshirilgan[9].

O‘zbekiston Respublikasida media-ta’lim muammolari S.Beknazarova, Ya.Mamatova, S.Sulaymanova, S.Babajanovlar va boshqa bir qancha olimlar tomonidan o‘rganilib, ilmiy-metodik asoslari ishlab chiqilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlari olimlaridan A.Fedorov, A.Milyutina, A.Veryaev, V.Protopopova, Ye.Nikitina, I.Fateeva, G.Onkovich, L.Zaznobina, N.Zmanovskayalar mediata’limni tashkil etish bo‘yicha salmoqli izlanishlar olib borishgan[7].

Geografik bilimlar maktab o‘quvchilarining va o‘quv amaliyotining tahlili shuni ta'kidlashga imkon beradiki, hozirgi kunga qadar iqtidorli bolalar bilan ishlashda ma’lum muvaffaqiyatlarga erishildi. Shu bilan birga, asosiy muammo hal etilmagan: iqtidorli bolalar va o‘smirlar ta’limini qanday tashkil etish kerak? Bu savolga javob izlash psixologik-pedagogik adabiyotlarda ba’zi yondashuvlar aniqlanganligini ko‘rsatdi: shaxsni bosqichma-bosqich rivojlantirish texnikasini o‘rgatish (V.V.Davydov, N.F.Talyzina, P.K.Engelmeyer), madaniy merosni o‘zlashtirish orqali shaxsning qobiliyatlarini rivojlantirish ( L.S.Vygotskiy (L.S.Vygotskiy, Leoning B.N.) va A.N.Teplov), sub’ektning muayyan faoliyatga moyilligini hisobga olgan holda shaxsni rivojlantirishga differensial yondashuv (V.N.Levitov), muammoli ta’lim (A.M.Matyushkin), ijodkorlik uchun sharoit yaratish (D.B.Bogoyavlenskaya) va boshqalar. Geografik bilimlar maktab o‘quvchilarini o‘qitishni tashkil etishda ularning qobiliyatlarini aniqlash muhim ahamiyatga ega, bu turli xil faoliyat turlarining muvaffaqiyati bunga bog'liq[7]. Zamonaviy fanda qobiliyatlarning bir nechta tushunchalari mavjud: irsiy, atrof-muhit, faoliyat bilan bog‘liq va ijtimoiy oldindan belgilanish. Ularning tahlili shuni ko‘rsatadiki, hozirgi kunga qadar mahalliy va xorijiy adabiyotlarda "qobiliyat" tushunchasining, shuningdek, "iqtidor" tushunchasining bir ma’noli va qoniqarli ta’rifi shakllantirilmagan.

Geografik bilimlar asosida quyidagi mavzuni yoritaylik:

**JONLI VA JONSIZ TABIAT**

**Mashg‘ulotning maqsadi.** O‘quvchilar jonli va jonsiz tabiat o‘rtasidagi farqlarni tushunadilar, ularning bir-biriga bog‘liqligini o‘rganadi. Ular tabiatning muvozanati va insonning undagi o‘rni haqida bilimga ega bo‘ladi.

Mashg‘ulot davomiyligi 40 daqiqa.

Interfaol resurslar.

Platformadagi interfaol resurslar 3-sinf

**Tabiiy fan (science)** darsligining 2-mavzusi 10-13-sahifalaridagi berilgan nazariy ma’lumotlar asosida tayyorlangan.

**Muhim va asosiy nazariy qism**

Tabiat ikki qismga bo‘linadi: Jonli tabiat – tirik organizmlar bo‘lib, ular o‘sadi, oziqlanadi, ko‘payadi va harakat qiladi.

**Bunga quyidagilar kiradi**: Odamlar Hayvonlar O‘simliklar Mikroorganizmlar Jonsiz tabiat – tirik emas, lekin jonli tabiatga ta’sir qiladi.

**Bunga quyidagilar kiradi**: Havo, Suv, Tuproq, Quyosh nuri, Toshlar, Jonli va jonsiz tabiat bir-biriga bog‘liq:

✓ O‘simliklar quyosh nuri, suv va tuproqdagi minerallar yordamida o‘sadi.

✓ Hayvonlar o‘simliklar va boshqa hayvonlar bilan oziqlanadi.

✓ Suv bo‘lmasa, jonli mavjudotlar yashay olmaydi. Tabiat muvozanatini saqlash uchun jonli va jonsiz tabiat o‘rtasidagi bog‘liqlikni tushunish va unga zarar yetkazmaslik muhimdir. STEM fanlar bilan integratsiyasi

**Tabiiy fanlar** – Jonli va jonsiz tabiat tushunchasi, ularning o‘zaro bog‘liqligi. Matematika – O‘simlik va hayvonlarning yashash muddatini hisoblash.

Texnologiya – Tuproqni saqlash va suvni tozalash texnologiyalari.

Informatika – Jonli va jonsiz tabiatni kuzatish uchun interaktiv xaritalar va onlayn manbalar.

**Qiziqarli fakt.**

Dunyo okeanlarida tirik organizmlar yashamaydigan joy yo‘q! Olimlar eng chuqur okean joylarida ham tirik organizmlar yashashini aniqlashgan. Masalan, Mariana botig‘ining 11 000 metr chuqurligidagi joyida ham bakteriyalar va maxsus moslashgan hayvonlar mavjud!

Shuningdek, geografik bilimlar bilan “**Transport uzog‘imizni yaqin qiladi”** mavzusini integratsiyalashgan metodlarni tahlil qilaylik:

**Mashg‘ulotning maqsadi**.

O‘quvchilar transport vositalari va ularning inson hayotidagi ahamiyati haqida tushunchaga ega bo‘ladi. Ular turli transport turlarini farqlash, ularning harakatlanish usullari va kundalik hayotimizdagi rolini o‘rganadi.

Mashg‘ulot davomiyligi 35-40 daqiqa.

Interfaol resurslar.

Platformadagi interfaol resurs 2-sinf

Tabiiy fanlar (science) darsligining 38-sahifasidagi ma’lumotlar asosida tayyorlangan.

Muhim va asosiy nazariy qism.

Transport – bu odamlar va yuklarni bir joydan boshqa joyga tez va oson yetkazib beradigan vositalar. Transport uch turga bo‘linadi: Yer transporti – avtomobil, avtobus, poyezd, velosiped. Havo transporti – samolyot, vertolyot. Suv transporti – kema, qayiq. Transport bizga tez harakat qilish, uzoq masofalarni qisqa vaqt ichida bosib o‘tish va yuklarni bir joydan ikkinchi joyga yetkazish imkonini beradi. Masalan, ilgari odamlar uzoq joylarga borish uchun haftalar yoki oylar sarflagan bo‘lsa, hozir samolyotda bir necha soat ichida dunyoning istalgan joyiga yetib borish mumkin.

STEAM fanlar bilan integratsiyasi.

**Tabiiy fanlar** – Transportning atrof-muhitga ta’siri va uning ishlash tamoyillari. Matematika – Masofa va tezlikni hisoblash.

Texnologiya – Transport vositalari qanday yaratilishi va ishlashi.

Informatika – Transport yo‘nalishlarini kuzatish va onlayn xaritalardan foydalanish.

**Qiziqarli fakt**.

Dunyodagi eng tezkor poyezd – Shinkansen (Yaponiya) soatiga 600 km tezlikda harakatlanishi mumkin! Bu shuni anglatadiki, agar siz Toshkentdan Samarqandga oddiy avtobusda 4 soatda borsangiz, ushbu tezkor poyezd atigi 30 daqiqada yetib boradi!

Geografik bilimlar maktab o‘quvchilarining tabiat, jamiyat, iqtisodiyot, demografiya, resurslar va ekologik muammolar kabi sohalarda umumiy dunyoqarashini shakllantirishning asosidir. Bu esa, o‘z navbatida, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining ana shu bilim va ko‘nikmalarni bolalarga o‘z vaqtida, to‘g‘ri, qiziqarli yetkaza olishiga bog‘liq. Shu boisdan ham bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini geografik tafakkurga

tayyorlash, ularni zamonaviy uslubiy vositalar va usullar bilan jihozlash, geografiyaga oid elementlardan dars jarayonida foydalanishga tayyorlash ilmiy-amaliy vazifadir.

Shu bilan birga, global iqlim o'zgarishi, demografik yuksalish, resurslardan samarali foydalanish, tabiiy ofatlarga tayyorgarlik ko'rish kabi muammolar yosh avlodni geografik jihatdan oqilona va mas'uliyatli qilib tarbiyalash zaruratini oshirmoqda. Bunda o'qituvchining geografik tafakkuri, ya'ni real dunyoni joy, vaqt va tizim nuqtai nazaridan anglay olishi hal qiluvchi omillardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Shu ma'noda pedagogik ta'lim muassasalaridagi bo'lajak o'qituvchilarning geografik tafakkurini tizimli va maqsadli rivojlantirish ta'lim sifatini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Geografik **fikrlash** bu xaritalar bilan ishlash qobiliyati yoki tabiatning tuzilishi haqida umumiy ma'lumotga ega bo'lish bilan cheklanmaydi. Birinchidan, u tabiiy, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy muhitni murakkab va tizimli ravishda tushunish, murakkab geografik jarayonlarni tushunish va ular orasidagi o'zaro bog'liqlik va sabab-natija munosabatlarini chuqur tahlil qilish qobiliyatini tushundi. Bunday fikrlash faqat bilimga taluqli emas, balki u mantiqiy, tizimli va har tomonlama tafakkurga asoslangan bilish jarayonidir[6].

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi uchun geografik fikrlash ta'limda kontseptual rivojlanish vositasidir. Bu qobiliyat orqali o'qituvchi bolalarga tabiiy va ijtimoiy jarayonlar o'rtasidagi murakkab o'zaro ta'sirlarni sodda, intuitiv, mantiqiy va samarali tarzda yetkaza oladi. Masalan, iqlim, relyef, suv resurslari va aholining joylashishi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tushuntirishda o'qituvchi chuqur geografik tafakkurga ega bo'lmasa, ma'lumotlarni noaniq tarzda yetkazish, o'quvchi ongida turli noaniqliklarni qoldirish mumkin.

Geografik tafakkurning shakllanishi va rivojlanishi, o'z navbatida, o'qituvchining metodik malakasini oshiradi, ya'ni dars jarayonini rejalashtirish, mazmunini rivojlantirish, o'quv materialini tanlash, o'quvchilarda qiziqish uyg'otish va faol ishtirok etishga undaydi[8].Ta'limda bu qobiliyatlar integratsiyalashgan tendentsiyalar, o'zaro bog'liqlik, mahalliy va global muammolarni tahlil qilish bilan bog'liq vazifalarni tuzatishda alohida ahamiyatga ega[5].

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida geografik bilim va malakalarning shakllanishi ko'p jihatdan o'qituvchining ushbu fanga munosabati, fikrlash darajasi va pedagogik yondashuviga bog'liq. Binobarin, bo'lajak o'qituvchilarda geografik tafakkurni shakllantirish nafaqat ularning shaxsiy kasbiy rivojlanishi, balki ta'lim jarayonini mazmunli va samarali tashkil etishda ham doimiy ahamiyat kasb etadi.

**NATIJALAR VA MUHOKAMA.** O'qitish usullari va shakllari mazmuni va maqsadlarini samarali amalga oshirish uchun maxsus tanlangan bo'lib, ular bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining nazariy bilimlarini chuqurlashtirish, amaliy ko'nikmalarini mustahkamlash va ijodiy-tahliliy tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan. Ma'ruza va amaliy seminarlar o'quvchilarga geografik tafakkurning nazariy asoslari, metodik imkoniyatlari va zamonaviy o'qitish texnologiyalari haqida tizimli ma'lumot berish bilan birga, mavzularni hayotiy misollar orqali yoritish imkonini beradi. Ma'ruza jarayonida bilimlar izchil va mantiqiy ketma-ketlikda taqdim etiladi, amaliy seminarlarda esa talabalar o'rgangan nazariy bilimlarini topshiriqlar, misollar va

amaliy mashg‘ulotlar orqali mustahkamlaydilar.

Mustaqil izlanish va loyiha ishlari talabalarning shaxsiy faolligini oshirish, mustaqil fikrlash, manbalar bilan ishlash va yangicha g‘oyalar ishlab chiqish qobiliyatini rivojlantiradi. Loyiha ishlari orqali talabalar geografik masalalarni aniqlab, ularni tadqiq qiladilar, amaliy yechimlar taklif etadilar va o‘z ishlarini taqdim etish ko‘nikmasiga ega bo‘ladilar.

Guruhli muhokama va keys-stadi uslublari talabalarda jamoada ishlash, turli fikrlarni eshitish va tahlil qilish, voqealarga turli nuqtai nazardan yondashish ko‘nikmasini shakllantiradi. Keys-stadi orqali ular real hayotdagi yoki modellashtirilgan vaziyatlarni tahlil qiladilar, muammoning yechimini topishda ijodiy va ilmiy yondashuv qo‘llaydilar[12].

Talabalarning o‘quv jarayonidagi faol ishtirokini ta’minlaydigan interaktiv mashg‘ulotlar esa o‘quv muhitini jonli, qiziqarli va samarali qiladi. Bu mashg‘ulotlar doirasida turli interfaol o‘yinlar, geografik kvestlar, debatlar, modellashtirish va simulyatsiyalar o‘tkazilib, talabalarning bilim olish jarayonidagi motivatsiyasi kuchayadi. Shu orqali ular faqat ma’lumot qabul qiluvchi emas, balki o‘quv jarayonining to‘laqonli ishtirokchisi sifatida faoliyat yuritadilar, bu esa ularning kelgusida pedagogik ishda ham shunday faol va ijodkor bo‘lishlarini ta’minlaydi[8].

**Modulni baholash mezonlari** o‘quv jarayonining samaradorligini aniqlash, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining nazariy bilimlari, amaliy ko‘nikmalari va ijodiy qobiliyatlarini har tomonlama baholashga qaratilgan.

***Birinchi bosqich*** – boshlang‘ich diagnostika bo‘lib, u modul boshida talabalarning mavjud bilim va ko‘nikmalarini aniqlash maqsadida o‘tkaziladi. Bu jarayonda test, anketa va savol-javob usullari qo‘llanilib, talabalarning geografik tafakkur haqidagi tushunchalari, xarita va sxemalar bilan ishlash tajribasi, ekologik ong darajasi hamda metodik yondashuvlar bo‘yicha tayyorgarligi baholanadi.

***Ikkinchi bosqich*** – oraliq baholash bo‘lib, u modul jarayonida talabalarning faoliyatini doimiy kuzatish va ularning o‘rgangan bilimlarini amaliyotda qo‘llash darajasini aniqlashga xizmat qiladi. Bu bosqichda amaliyot topshiriqlari, xarita bilan ishlash natijalari, modellashtirish mashg‘ulotlari va integratsiyalashgan o‘quv faoliyatidagi ishtirok baholanadi. Shu orqali talabalarning topshiriqlarni bajarishdagi mantiqiy izchilligi, tahlil qilish qobiliyati va vizual ma’lumotlardan foydalanish mahoratlari aniqlanadi.

***Uchinchi bosqich*** – yakuniy baholash bo‘lib, u modulning umumiy natijalarini chiqarish va talabalarning kasbiy kompetensiyalarini qanday darajada o‘zlashtirganini belgilashga qaratilgan. Bu bosqichda talabalar o‘z loyihalarini himoya qiladilar, ijodiy ishlarni taqdim etadilar va yakuniy test sinovlaridan o‘tadilar. Loyiha himoyasi orqali talabalarning mustaqil izlanish olib borish, natijalarni ilmiy asosda taqdim etish va pedagogik nuqtayi nazardan asoslash ko‘nikmalari baholanadi. Ijodiy ishlarda esa ularning yangi g‘oyalar ishlab chiqish, turli o‘qitish usullarini qo‘llash va materialni o‘quvchilarga qiziqarli yetkazish qobiliyati o‘rganiladi. Yakuniy test natijalari esa nazariy bilimlarning to‘liq o‘zlashtirilganlik darajasini ko‘rsatadi[9].

Shu tarzda, modulni baholash mezonlari bosqichma-bosqich va kompleks tarzda tashkil etilib, har bir talabaning rivojlanish

dinamikasi, bilim va ko‘nikmalarni amaliy qo‘llash qobiliyati hamda kasbiy yetuklik darajasi haqida to‘liq tasavvur hosil qilish imkonini beradi.

Modulning ahamiyati, avvalo, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini faqat nazariy geografik bilimlar bilan ta’minlash bilan cheklanmasdan, ularni ushbu bilimlarni metodik jihatdan to‘g‘ri va samarali tarzda o‘quvchilarga yetkazish qobiliyatiga ega mutaxassis sifatida tayyorlashga qaratilganligida namoyon bo‘ladi. Bu modul orqali talabalar geografik tushunchalarni o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlariga mos ravishda tushuntirish, ularda makonli va hududiy fikrlash ko‘nikmasini shakllantirish hamda tabiat va jamiyat o‘rtasidagi bog‘liqlikni ilmiy asosda izohlash mahoratlarini o‘zlashtiradilar. [9]. Shu bilan birga, modul ularni o‘quvchida mustaqil fikrlash, tahlil qilish, taqqoslash va xulosa chiqarish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan o‘qitish usullarini qo‘llashga tayyorlaydi.

Ekologik ongni shakllantirish borasida ham modul muhim o‘rin tutadi. Chunki u bo‘lajak o‘qituvchilarga tabiatni muhofaza qilish, resurslardan oqilona foydalanish, ekologik muammolarni tahlil qilish va ularning yechimini izlash bo‘yicha ilmiy asoslangan bilim va amaliy ko‘nikmalarni beradi. Bu esa o‘quvchilarning yoshligidan atrof-muhitga mas’uliyatli munosabatda bo‘lishini ta’minlaydi[11].

Shuningdek, modulning ahamiyati shundaki, u talabalarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar – interfaol usullar, axborot-kommunikatsiya vositalari, GIS va virtual xaritalar bilan ishlash imkoniyatlarini samarali qo‘llashga o‘rgatadi. Bu, o‘z navbatida, ularning darslarini qiziqarli, mazmunli va amaliy jihatdan boy qilib, o‘quvchilarda fanga bo‘lgan qiziqishni oshiradi.

Natijada, modul bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini kompleks ravishda rivojlantirishga, ularni ilmiy asoslangan, amaliy tajribaga ega, innovatsion yondashuvga tayyor va pedagogik jarayonda zamonaviy talablarga javob bera oladigan mutaxassis sifatida tayyorlashga xizmat qiladi.

Xususan, XXI asrning global muammolari – iqlim o‘zgarishi, tuproq eroziyasi, tuproq degradatsiyasi, demografik zo‘riqish, urbanizatsiya, biologik tog‘larning yo‘qolishi va resurslardan oqilona foydalanish nafaqat fan va siyosat sohalarida, balki ta’lim tizimida ham asosiy kun tartibiga aylandi. Chunki bu murakkab va u bilan bog‘liq bo‘lgan ekologik-geografik muammolarni to‘g‘ri tushunish, ularning sabablarini tahlil qilish va bartaraf etish yo‘llarini izlash uchun aholi, ayniqsa, yosh avlodda geografik tafakkurni, ekologik savodxonlikni yuksak darajada shakllantirish zarur bo‘lib qoldi[10].

Bu jarayonda geografik fikrlash - joy, joy, vaqt, manba, atrof-muhit va odamlar o'rtasidagi munosabatlarni tizimli ravishda tushunish qobiliyati markaziy rol o'ynaydi. Bunday fikrlash orqali inson nafaqat ma'lum bir tabiiy yoki ijtimoiy hodisani alohida, balki uning kengroq global tizimdagi o‘rni va ta’sirini ham baholay oladi. Masalan, iqlim o‘zgarishining suv resurslariga, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishiga va hududdagi aholi zichligiga ta’sirini tushunish uchun murakkab geografik siljishlar talab qilinadi.

**XULOSA.** Boshlang‘ich ta’limda tabiiy fanlar va geografiya asoslari fanlarini o‘qitishning pedagogik-psixologik xususiyatlari quyidagi ilmiy-nazariy va amaliy xulosalarga kelindi:

✓ Geografik tafakkur tushunchasi – o‘qituvchi va o‘quvchining tabiiy, ijtimoiy

va iqtisodiy hodisalarni o‘zaro bog‘liq holda anglay olish, ularni mantiqiy tahlil qilish va hayotiy faoliyatda qo‘llash qobiliyati sifatida ifoda etiladi.

✓ Boshlang‘ich ta’limda geografik tafakkurni rivojlantirishda fanlararo bog‘lanish, integratsiyalashgan ta’lim texnologiyalari va axborot-kommunikatsiya vositalari samarali natija beradi.

✓ Geografik tafakkurni shakllantirish jarayonida o‘quvchida joy haqida kompleks tasavvur, xarita va makon bilan ishlash ko‘nikmalari, ekologik va madaniy-tarixiy qadriyatlarga hurmat hissi mustahkamlanadi.

✓ Ta’lim jarayonida amalga oshirilgan pedagogik tajriba-sinov ishlari shuni ko‘rsatdiki, metodik jihatdan to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilgan mashg‘ulotlar, interaktiv topshiriqlar va tadqiqotga yo‘naltirilgan o‘quv loyihalari o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, tahlil va ijodiy yondashuvni kuchaytiradi.

✓ Geografik tafakkurni rivojlantirishda o‘qituvchi shaxsiy namuna, ilmiy manbalardan foydalanish madaniyati va innovatsion pedagogik usullarni qo‘llash orqali yetakchi o‘rin tutadi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi taklif va tavsiyalar ilgari suriladi:

✓ Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi yo‘nalishidagi oliy ta’lim dasturlariga geografik tafakkurni rivojlantirishga oid maxsus modullar (fanlararo integratsiya, GIS va AKT texnologiyalari, xarita bilan ishlash metodikasi) kiritish.

✓ Bo‘lajak o‘qituvchilar uchun amaliy mashg‘ulotlarda mahalliy tabiiy va ijtimoiy muhitga oid loyihaviy tadqiqotlarni ko‘paytirish, maktablarda geografik burchaklar va interaktiv o‘quv makonlarini yaratish.

✓ Geografiya va tabiiy fanlar bo‘yicha o‘quv dasturlarini qayta ko‘rib chiqib, o‘quvchi tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan ijodiy va tahlilchi topshiriqlar ulushini oshirish.

✓ Pedagoglar uchun malaka oshirish kurslarida geografik tafakkurni shakllantirish metodikasi bo‘yicha maxsus seminar-treninglar tashkil etish.

✓ O‘quv jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalari (virtual ekskursiyalar, interaktiv xaritalar, multimedia platformalari)dan tizimli foydalanish orqali o‘quvchi qiziqishini oshirish.

✓ Geografik bilim va tafakkurni baholashda testlar bilan birga ijodiy ishlar, xarita tuzish, joy haqida mulohazalar yozish va loyiha himoyasi kabi kompleks baholash mezonlarini joriy qilish.

Umuman olganda, ushbu tavsiyalarning amalga oshirilishi geografiya ta’limida pedagogik jarayonni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqadi, talabalarning geografik tafakkurini rivojlantirishda yuqori samara beradi hamda ularni zamonaviy ta’lim va mehnat bozori talablariga mos yuqori malakali mutaxassislar sifatida tayyorlash imkonini yaratadi.

Hozirgi vaqtda jamiyat taraqqiyoti, atrof-muhit va hayot sifati geografik bilim va tafakkur darajasiga bevosita bog‘liq. Bu ta’limning barcha bosqichlarida, ayniqsa, boshlang‘ich bosqichida geografik tafakkurni shakllantirishga qaratilgan uslubiy yondashuvlar, ta’lim texnologiyalari va pedagogik modellarni takomillashtirishni taqozo etadi.

Shu nuqtai nazardan, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini atrof tabiatni bilish, ma’lumotlarni tahlil qilish, xarita bilan ishlash, sabab-natija munosabatlarini ko‘ra bilish kabi geografik bilimlarga ega bo‘lish muhim ahamiyatga ega. Buning uchun geografik tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-uslubiy tadqiqotlar, o'quv mazmunini qayta ko‘rib chiqish, metodik modellar va funksional integratsiyaga asoslangan interfaol usullar zarur.

Rivojlangan mamlakatlarda tabiiy fanlar va geografiyaning asosiy fanlarini o‘qitishni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda:

kasbiy-pedagogik yo‘nalish asosida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini tiklash masalalari bo‘yicha mustaqil fikrlash, muammolarni ijodiy hal etish, o‘quv jarayonini pedagogik-psixologik loyihalash, intensiv integrativ texnologiyalar. Binobarin, geografik fikrlashni shakllanmasligi nafaqat ta’lim sifatiga, balki jamiyatning barqaror rivojlanishiga, kelajakning ekologik muvozanatini saqlashga va mas’uliyatli fuqarolik tarbiyasiga xizmat qiluvchi strategik vazifalar amalga oshiriladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES).**

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil,. “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni, PF-5847-son. http: // lex.uz.

2.O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. 2020-yil, 23- sentabr O‘RQ-637 son.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil, 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son farmoni. https://lex.uz/docs/5841063

4. Djuraev A.S. Malaka oshirish jarayonida tinglovchilarning kasbiy malakasini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish: ped. fan. bo‘y. fals. dokt. (PhD) dis. avtoref. – Samarqand, 2019. – 50 b;

5.Djumayeva M.M. Algorithm - methodological training of future primary school teachers in teaching primary science. Science and innovation international scientific journal volume 3 issue 2 febuary 2024 uif-2022: 8.2 | issn: 2181-3337 | scientists.uz. https://doi.org/10.5281/zenodo.10641847

6.Djumaeva M.M. Aniq va tabiy fanlarni o‘qitida milliy o‘quv dasturi talablari xususida. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya 2021 yid 19 oktyabr 624-627 b.

7.Djumayeva M.M. Tabiiy fanlar nazariyasi va metodikasi. Darslik. T.: Meros 2025 y. – 268,b

8.Ismatov I. Sh. O‘quvchilarda atrof-muhitga ma’suliyatli munosabatni shakllantirish (anorganik kimyo misolida). Ped.fan.nom. disser.avtor.-T. :-2006.-21b.

9.M.M Джумаева развитие методической подготовки будущих учителей в реподавании естественных наук Экономика и социум, 699-670, 2023

10.Catling,S., & Willy, T. (2018). *Teaching Primary Geography*. – London: Routledge.

11.Scoffham,S. (2017). *Teaching Geography Creatively*. – London: Routledge.

12.Bale, J. (1996). *Teaching Geography in Primary Schools*. – Oxford: Heinemann Educational.